


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
PEDAGOGIK MAHORAT VA XALQARO BAHOLASH ILMUY-AMALIY MARKAZI

2023-2024 O'QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN
MAKTABLARNING 9-SINF O'QUVCHILARI UCHUN

O'ZBEKISTON TARIXI

FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH
BO'YICHA METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR



**2023-2024-O'QUV YILIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING
9-SINF O'QUVCHILARI UCHUN YAKUNIY NAZORAT IMTIHONINI
O'TKAZISH BO'YICHA O'ZBEKİSTON TARIXI FANIDAN
SPETSİFİKATSIYASI.**

Tuzuvchilar: “O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab” Tarix fani o'qituvchisi **Abdujalilova Nigora Abdusattarovna**

Ekspert: Oliy toifali tarix va davlat huquq asoslari fani o'qituvchisi **Dehqonov G'ayrat Ro'zmatovich**

9-sinfini tugatgan o'quvchilar O'zbekiston tarixi fanidan ta'lim dasturi bo'yicha ma'lum darajadagi kompetensiyalarga ega bo'ladilar.

O'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun 2023–2024-o'quv yilida 9-sinflarda yakuniy imtihon yozma va o'g'zaki shaklda o'tkaziladi.

Har bir imtihon biletining savol va topshiriqlari O'zbekiston tarixi fani bo'yicha umumta'lif maktablarning 6-7-8-9-sinflari mavzularini qamrab olingan. Shuningdek, tavsiyada bilishga oid savollar, qo'llashga va mulohazaga oid topshiriqlar bo'yicha baholash mezonlari keltirilgan.

Har bir o'quvchi bittadan biletni tanlab oladi. Biletda o'quvchiga 5 tadan savol beriladi. Savollarning 2 tasi bilishga, 2 tasi qo'llashga, 1 tasi mulohazaga oid bo'ldi. Mulohazaga oid savolga javob o'g'zaki topshiriladi. O'quvchi bilet savollariga javob berishi uchun 120 daqiqa vaqt beriladi.

O'quvchilarning yozma va o'g'zaki ishlari 100 ballik tizim asosida:

0 – 29% – “qoniqarsiz”;

30–65% – “qoniqarli”;

66–85% – “yaxshi”;

86–100% – “a'lo” baho kabi baholanadi. Har bir topshiriq uchun belgilangan balldan yuqori ball qo'yilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Berilgan topshiriqlardan yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkazilishi belgilangan kundan bir kun oldin, Ishchi guruh tomonidan qur'a tashlash yo'li bilan 2 ta variant tuzilib, e'lon qilinadi.

O'zbekiston tarixi	Soni	Bilish	Qo'llash	Mulohaza
--------------------	------	--------	----------	----------

Qadimgi dunyo tarixida O‘rta Osiyo.		1		
O‘rta asrlar tarixi IV asrdan XVI asrgacha.		1		
„Uch xonliklar davri “XVI asrdan XIX asr o‘rtalarigacha.			1	
XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarigacha.			1	1
Jami	5	2	2	1

TOPSHIRIQ BO‘YICHA BAHOLASH MEZONI

№	Bo‘lim nomi		Topshiriq turi	Topshiriq shakli	Baholash mezoni							
Qadimgi dunyo tarixida O‘rta Osiyo.												
1.	Qadimgi Sharq va O‘rta Osiyo. Mil. avv. VI – mil. III asrlarda O‘rta Osiyo	B	Qisqa javobli	J: _____	Savolni javobi yoziladigan bo‘lib to‘g‘ri javob uchun 18 ball bilan baholanadi. Xato javob uchun 0 ball beriladi.							
O‘rta asrlar tarixi IV asrdan XVI asrgacha.												
2.	Arab xalifaligi davrida Movarounnahr. Movarounnahrda mustaqil davlatlarning tashkil topishi. Ajdodlarimizning ilmiy merosi adabiyatga daxldor ma’naviy xazina. Amir Temur davri tarixi.	B	Qisqa javobli	J: _____	Savolni javobi yoziladigan bo‘lib to‘g‘ri javob uchun 18 ball bilan baholanadi. Xato javob uchun 0 ball beriladi.							
“Uch xonliklar davri “ XVI asrdan XIX asr o‘rtalarigacha.												
3.	XV asrning oxiri-XVI asrning boshlarida	Q	Jadvalli test	<table border="1" style="margin-left: auto; margin-right: auto;"> <tr> <td>Moslikni aniqlash</td> </tr> <tr> <td>1)</td> <td>2)</td> <td>3)</td> </tr> <tr> <td> </td> <td> </td> <td> </td> </tr> </table>	Moslikni aniqlash	1)	2)	3)				Jadval ko‘rinishidagi topshiriqda, har bir savolga uning javobini
Moslikni aniqlash												
1)	2)	3)										

	Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy vaziyat. Buxoro xonligi va Buxoro amirligi. Xiva xonligi. XVIII-XIX asrning birinchi yarmida Qo‘qon xonligi.			mos keltirish kerak bo‘ladi. 3-4 ta savol va 3-4 tadan ko‘p javob variantlari beriladi. 1 ta savolga bir nechta javoblar ham mos kelishi mumkin. Moslikni hammasini to‘g‘ri javob uchun 21 ball beriladi. 3 talik savollarda 1-ta to‘g‘ri javobga 7 ball , 4 talik savollarda 1-ta to‘g‘ri javob uchun 5,25 ball barcha xato javob uchun 0 ball beriladi.
--	--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--	--	------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

XIX asrning II yarmi va XX asr boshlarigacha.

4.	XIX asr o‘rtalarida O‘zbek xonliklarining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti. Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyon bosib olishi. Rossiya imperiyasining Turkiston mustamlakachilik siyosati.	Q	Xarita Xaritada belgilangan hudud	Xaritada belgilangan hududni aniqlab berilgan topshiriq bajarilsa – 21 ball . Hudud aniqlansa lekin topshiriq bajarilmasa – 10 ball . Xato javob uchun 0 ball beriladi.
5.	XIX asr oxirida Turkistondagi milliy-ozodlik harakatlari. XIX asrning ikkinchi yarmi- XX asr boshlarida Qoraqalpoqlar. Jadidchilik harakati va uning Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotdagi ahamiyati. Turkiston va birinchi jahon urushi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida	M	Tarixiy voqealik haqida mustaqil fikr bildirish O‘gzaki	<ul style="list-style-type: none"> - Yil va sanalarni bila olsa – 3 ball; - Savolning mohiyatini, u bilan aloqador muammolarni tushunish va jarayonni bugungi kunga bog‘lay olsa – 5 ball; - Xarita bilan ishlay olsa – 4 ball; - mavzuga tanqidiy va tahlil baho bera olsa – 5 ball; - Imtixon oluvchi tomonidan berilgan mavzuga aloqador

Buxoro amirligi va Xiva xonligi. Mustamlaka sharoitida Turkistonda madaniy hayot.			qo'shimcha savollarga javob bera olsa – 5 ball 22 ball
--------------------------------------------------------------------------------------------------	--	--	----------------------------------------------------------------------------

**2023-2024-O'QUV YILIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING
9-SINF O'QUVCHILARI UCHUN O'ZBEKISTON TARIXI FANIDAN
YAKUNIY IMTIHON SAVOLLARI.**

1-savol BILISH (18 ball) 6-sinf Qadimgi dunyo tarixi .

1. Mil. avv. VII-VI asrlarda O'zbekiston hamda unga qo'shni hududlarda qaysi qabilalar yashagan? (Bilish – 18 ball)

J: _____

2. O‘rtalik Osiyo hududida mil. avv. VII asrda qanday qadimgi davlatlar tashkil topgan?
(Bilish – 18 ball)

J: _____

3. «Payg‘ambar» so‘zi qanday ma’noni anglatadi? (Bilish – 18 ball)

J: _____

4. Kim bizga bugungi kunda zardushtiylarning muqaddas kitobi «Avesto» matnlari bilan tanishish imkoniyatini bergen? (Bilish – 18 ball)

J: _____

5. Zardushtiylarning qaysi xudolari ehtiromga sazovor bo‘lgan? (Bilish – 18 ball)

J: _____

6. Zardushtiylar umrining tub ma’nosi nimalardan iborat bo‘lgan? (Bilish – 18 ball)

J: _____

7. Doro I hukmronligining birinchi yilida qayerda va kim rahbarligida yirik xalq qo‘zg‘oloni ko‘tarilgan? (Bilish – 18 ball)

J: _____

8. O‘rtalik Osiyo yerlarini bosib olish uchun Aleksandr deyarli uch yil urinib qaysi hududlarni bo‘ysundirishga muvaffaq bo‘lgan? (Bilish – 18 ball)

J: _____

9. Kushon davlatiga qachon va kim asos solgan? (Bilish – 18 ball)

J: _____

10. Buyuk Ipak yo‘li 12 ming kilometrgacha uzunlikda bo‘lib, u qaysi hududlargacha borgan? (Bilish -18 ball)

J: _____

2-savol BILISH (18 ball) 7-sinf O‘zbekiston tarixi .

1. Movarounnahr so‘zining ma’nosi nima? (Bilish – 18 ball)

J: _____

2. VIII asr boshlarida Arab xalifaligining Movarounnahr hududini bosib olishda kim harbiy yurishiga boshchilik qilgan. (Bilish – 18 ball)

J: _____

3. Arab xalifaligitomonidan bosib olingan hududlarda qanday soliqlar joriy etilgan? (Bilish – 18 ball)

J: _____

4. “Oq kiyimlilar” qo‘zg‘oloni nechanchi yillarda va kimning rahbarligida ko‘tarilgan? (Bilish – 18 ball)

J: _____

5. Kim 900-yilda Movarounnahr va Xurosonni o‘z qo‘l ostida birlashtirib, Buxoro shahrini bu ikki davlatning poytaxtiga aylantirgan. (Bilish – 18 ball)

J: _____

6. Nima uchun Xorazmshoh Sulton Alovuddin Muhammad “Iskandari Soniy” nomi bilan ulug‘langan? (Bilish – 18 ball)

J: _____

7. Kimning iltijo bilan “Yo Vatan, yo sharofatli o‘lim” deb aytgan xitobi har bir mahalla, ko‘cha-ko‘y, guzar-u rasta, masjid-u madrasa va har bir xonadonni janggohga aylantirgan? (Bilish -18 ball)

J: _____

8. Chig‘atoy ulusiga qaysi hududlar kirgan? (Bilish -18 ball)

J: _____

9. Kimlar IX-XII asrlarda ilm-u fanni rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar?

(Bilish – 18 ball)

J: _____

10. Tarixda “Loy jangi” nomi bilan shuhrat qozongan jang qachon va kimlar o‘rtasida bo‘lgan? (Bilish -18 ball)

J: _____

**3-savol QO‘LLASH (21 ball) Jadvalli test, moslashtirish.
8-sinf O‘zbekiston tarixi .**

1. Ushbu hukmdorlarni ular haqidagi ma’lumotlar bilan moslashtiring. (Qo‘llash-21 ball)

1) Xusayn
Boyqaro

a) Uning davrida davlatining xo‘jalik va madaniy hayoti ancha yuksaldi.

2) Zahiriddin
Muhammad
Bobur

3) Muhammad
Shayboniyxon

b) Movarounnahrda yangi o‘zbek davlatiga asos solgan

c) Uning orzusi Amir Temur sultanatining poytaxti bo‘lmish
Samarqand taxtini egallash bo‘lgan.

d) Xuroson taxtini egallagan

e) Uning asosiy maqsadi Temuriylar sultanatiga butunlay
barham berish bo‘lgan

f) 1500-yilning kuzida Samarqandga yurish boshlagan

1)	2)	3)

2. Buxoro xonlarini amalga oshirgan islohotlari bilan moslashtiring. (Qo‘llash – 21 ball)

1) Ubaydullaxon

a) Xonlik iqtisodiyotini tartibga solish va savdoni
rivojlanterish maqsadida pul islohotini o‘tkazgan

2) Abdullaxon II

b) Mir Arabga bag‘ishlab 1533-1536-yillarda Buxoroda
uning nomi bilan mashhur madrasa qurdirgan

3) Muhammad
Shayboniyxon

c) Xonlik poytaxtini Samarqanddan Buxoroga ko‘chirtingan

d) Harbiy sohada islohot o‘tkazgan.

e) Pul islohotiga ko‘ra yangi kumush tanganing qiymati 30 ta,
eskisi esa 27 ta mis tangaga tenglashtirgan.

f) Islohotgacha muomalada bo‘lgan turli o‘lcham va
og‘irlikdagi tangalar vazni bir xil - 5,2 grammli yangi kumush
va mis tanga zarb qilingan

1)	2)	3)

3. Buxoro xonligidagi davlat lavozimlariga yuklatilgan vazifalari bilan moslashtiring.
(Qo'llash – 21 ball)

1) Devonbegi

a) Mamlakatda adolat mezonlariga amal qilinishini nazorat qilib borgan.

2) Parvonachi

c) mamlakat xavfsizligi, amirning yaqinlari, do'stlari va dushmanlari to'g'risida ma'lumotlar to'plagan.

3) Dodxoh

d) Ijro etuvchi hokimiyatga rahbarlik qilgan.

4) Mehtar

e) Xon farmonlarini, rasmiy hujjatlarni mas'ul shaxslarga, ijrochilarga yetkazish.

f) Dargohga tushgan arizalarni qabul qilgan va ularga javob qaytargan.

g) Zakot va boshqa tushumlarning zarur o'rnlarda ishlatalishini nazorat qilgan.

4. Xiva xonligida faoliyat yuritgan tarixchi olimlarni yozgan mashhur asarlari bilan moslashtiring. (Qo'llash – 21 ball)

1) Ogahiy

a) "Eng go'zal tarix"

2) Abulg'oziy Bahodirxon

b) "Firdavs ul-iqbol"

3) Munis

c) "Davlatlar gulshani"

d) "Shajarayi turk va mo'g'ul"

e) "Davlatning jannat bog'i"

1)

2)

3)

--	--	--

5. Ushbu hukmdorlarni siyosiy faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlarni moslashtiring.
(Qo’llash – 21 ball)

1) Olloqulixon

a) “Shajarai turk” asarini yozgan

2) Muhammad Raximxon I

b) Buxoroga qarshi urushda halok bo‘lgan

3) Abulg‘oziy Bahodirxon

c) Gandimiyon shartnomasini imzolagan

d) Xiva shahri mudofaa devor bilan o‘ralgan.

e) Xiva xonligini siyosiy
jihatdan birlashtirishga kirishgan

1)	2)	3)

6. Xiva xonligidagi soliq va majburiyatlar haqidagi ma’lumotlarni moslashtiring.
(Qo’llash – 21 ball)

1) Salg‘ut

a) Xiva xonligidagi yer solig‘i

2) Zakot

b) 12 kunlik davlat majburiyat bo‘lib, qishloqning har bir
xonadonidan bir kishidan odam jalb etilgan

3) Barot

c) Urush vaqtida aholidan olingan.

4) Begar

d) Hunarmandlar, tashqi savdo bilan shug‘ullanuvchi
savdogarlar, chorvadorlar to‘lagan.

e) Xiva xonligidagi asosiy soliq turi.

f) Yilning boshidayoq yoki bir necha yillik soliq avvaldan undirilishi.

1)	2)	3)	4)

7. Qoraqlpoq adabiyoti namoyandalarini yozgan asarlari bilan moslashtiring. (Qo'llash – 21 ball)

1) Jiyen Jirov

a) “Kerak”, “Bo‘ladi”, “Bo‘lmasa”, “Yaxshi”, “Yigitlar”

2) Ajiniyoz

b) “Bo‘lgan emas”, “Umrilm“ va “Soliq”, “O‘g‘limga”, “Ahmoq bo‘lma“

3) Berdaq

c) “Hoy yigitlar, yigitlar”

4) Kunxo‘ja
Ibrohim

d) “Ajiniyoz”

e) “Alpomish”, “Qirqqiz”

f) “O‘roqchilar”, “Cho‘ponlar”, “El bilan”

1)	2)	3)	4)

8. Qo‘qon xonligida hukmdorlarni ular haqidagi ma’lumotlar bilan moslashtiring. (Qo’llash – 21 ball)

1) Norbo‘tabiy

a) Pul zarb etish orqali rasman o‘zining hukmdorlik maqomini tasdiqlagan

2) Olimxon

b) O‘zidan norozi bo‘lgan shahzodalarni turli viloyat va tumanlar hokimi etib tayinladi. Shu yo‘l bilan muxolifatning qarshiligini susaygan.

3) Umarxon

c) Uning davrida Qo‘qon xonligi Amir Nasrullo tomonidan bosib olingan.

d) Uning davrida Usmonli davlati sultonı Qo‘qon xonligining Buxoro amirligidan to‘la mustaqil davlat ekanligini tan oldi.

4) Muhammad
Alixon
(Madalixon)

e) Kambag'al va qalandarlarga yer hamda chorva mollari berib, ularni mehnatga jalg etgan.

f) Qo'qon xonlaridan birinchi bo'lib xonlikning fals deb atalgan o'z pulini zarb ettirgan

1)	2)	3)	4)

9. Qo'qon xonligidagi davlat lavozimlariga yuklatilgan vazifalari bilan moslashtiring.
(Qo'llash - 21 ball)

1) Qo'shbegi

a) Bosh vazir, qo'shining Bosh qo'mondoni va tashqi siyosat masalalarida xonning bosh maslahatchisi bo'lgan.

2) Mirza

b) Xonning maxfiy maslahatchisi, alohida topshiriqlarini bajaruvchi, zarurat bo'lganida elchi qilib jo'natiladigan

3) Mingboshi

c) Xonlik devonxonasiga rahbarlik qilgan, shuningdek, moliya ishlarini boshqargan.

4) Devonbegi

d) Xazinaga tushgan tushumning hisob-kitobini olib borgan.

e) O'z qo'shiniga ega beklik hokimi

f) Xonlik xavfsizlik xizmatini boshqargan.

1)	2)	3)	4)

10. Qo'qon xonligida soliqlar va ular haqidagi ma'lumotlarni moslashtiring.
(Qo'llash – 21 ball)

a) Ko'chmanchi chorvadorlardan mol boshiga va qo'rasiga garab olinadigan zakot.

1) Xiroj

b) zakot to‘lamaydigan toifalarning bekka beradigan 9 buyumdan iborat in’omlari bo‘lgan.

2) Qo‘raboshi

c) bahor kelganda yangi o‘tloqlarga ko‘chishdan oldin xonardon boshiga bittadan qo‘y bilan olinadigan soliq

3) Tutun haqi

d) Yilning boshidayoq yoki bir necha yillik soliq avvaldan undirilishi.

4) Yig‘im soliq

e) Asosiy soliq bo‘lib, uning miqdori ekin ekiladigan yer maydoni va ekin turiga qarab hosilning $1/3$ - $1/5$ qismi teng


f) Bu zakot qishda mollar qo‘ralarda turganida yig‘ib olingan.

1)	2)	3)	4)

4-savol QO‘LLASH (21 ball) Xarita bilan ishlash.


9-sinf O‘zbekiston tarixi .

1. XIX asr o‘rtalariga oid xarita asosida Buxoro amirligi hududi, chegaradosh davlatlari va aholisi haqida ma’lumot bering (Qo‘llash - 21 ball)




Javob: _____

2. XIX asr o‘rtalariga oid xarita asosida Xiva xonligi hududi, chegaradosh davlatlari va aholisi haqida ma’lumot bering. (Qo’llash – 21 ball)



Javob: _____

3. XIX asr o‘rtalariga oid xarita asosida Qo‘qon xonligi hududi, chegaradosh davlatlari va aholisi haqida ma’lumot bering. (Qo‘llash – 21 ball)




Javob: _____

4. Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olish jarayonini ketma-ketlikda quyidagi xarita orqali izohlang. (Qo'llash – 21 ball)



Javob: _____

5. Quyidagi xarita assosida Turkiston general gubernatorligi viloyatlari haqida ma'lumot bering. (Qo'llash – 21 ball)




Javob: _____

6. Xaritadagi shaharni aniqlab u haqida ma'lumot bering. (Qo'llash – 21 ball)




Javob: _____

7. Quyidagi xarita asosida Rossiya imperiyasining Xiva xonligiga qarshi harbiy yurishlari va uning natijasida bosib olgan hududlari haqida ma'lumot bering.
(Qo'llash – 21 ball)



Javob: _____

8. Xarita asosida quyidagi yillarda Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingan hududlar haqida ma'lumot bering. (Qo'llash – 21 ball)




1. 1847-1865-yillarda

2. 1865-1868-yillarda

3. 1873-1879-yillarda


4. 1880-1885-yillarda

9. Xarita asosida Turkiston geberal –gubernatorligining ma'muriy – hududiy tuzilishini izohlang. (Qo'llash – 21 ball)



Javob: _____

10. Xaritada raqamlangan Turkiston general - gubernatorligining chegaradosh davlatlarni aniqlab, davlatlararo munosabatlarini izohlang. (Qo'llash – 21 ball)



Javob: _____

5-savol MULOHAZA (22 ball) 9-sinf O‘zbekiston tarixi .

1. Milliy- ozodlik harakatlarining boshlanishiga nimalar sabab bo‘lgan, nima qilinganida bunday harakatlarni oldi olingan bo‘lardi? (Mulohaza – 22 ball)
2. Nima deb o‘ylaysiz, nimalar qilinganida “Vabo isyoni” oldi olingan bo‘lar edi? (Mulohaza – 22 ball)
3. Sizningcha, Andijon qo‘zg‘oloni (Dukchi Eshon) nima uchun mag‘lubiyatga uchradi? (Mulohaza – 22 ball)
4. Nima sababdan, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Qoraqalpoqlarda xalq qo‘zg‘olonlari sodir bo‘ldi? (Mulohaza – 22 ball)
5. Sizningcha, O‘rtta Osiyoda jadidchilik harakatining vujudga kelishiga nimalar sabab bo‘lgan va ular qanday sharoitlarda faoliyat olib borishga majbur bo‘lganlar? (Mulohaza – 22 ball)
6. Sizningcha, Jizzax qo‘zg‘oloni nima sababdan mag‘lubiyatga uchragan? (Mulohaza – 22 ball)
7. Nima deb o‘ylaysiz, nima qilinganida Buxoro amirligi qulamagan bo‘lardi? (Mulohaza – 22 ball)
8. Yosh buxoroliklarning faoliyatidagi ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qiling. (Mulohaza – 22 ball)
9. Sizningcha, Xiva xonligining tugatilishidan qanday saqlab qolish mumkin edi? (Mulohaza - 22 ball)
10. Nima deb o‘ylaysiz, O‘rtta Osiyoda madaniy hayotning rivojlanishiga jadidchilarni o‘rni qanday bo‘lgan? (Mulohaza -22 ball)